

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA ZAMONAVIY XALQARO MUNOSABATLAR. TASHKILOT ISLOHATGA MUHTOJMI?

Meyerbek Yergashbayev.

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

ANNOTATSIYA

Maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni yoritilgan. Tashkilotning turli organlari faoliyatini takomillashtirish, Xavfsizlik Kengashini qayta tashkil etishning murakkabligiga e'tibor qaratilgan. Islohatlar bo'yicha davlatlar pozitsiyasidan misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: BMT, islohat, Xavfsizlik kengashi, xavfsizlik, Veto

ABSTRACT

The article discusses the role of the United Nations in the modern system of international relations. Examples are given from the position of states on reforms.

Keywords: UN, reform, Security Council, security, veto

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль Организации Объединенных Наций в современной системе международных отношений. Приведены примеры с позиции государств по реформам.

Ключевые слова: ООН, реформа, Совет Безопасности, безопасность, право вето.

KIRISH

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlik va xafsizlikni ta'minlash, insonparvarlik yordami kabi sohalardagi erishgan muvaffaqiyatlari yaxshi ma'lum. Tashkilotning faoliyati ko'p qirralari bo'lib, insoniyat, olamning muhim masalalarni qamrab oladi: barqaror rivojlanish va terrorizmga qarshi kurash, demokratiya va boshqaruvni rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va global sog'liqni saqlash muommolarini hal qilishdan oziq-ovqat ishlab chiqarishni rivojlantirishgacha. Shu maqsadlarga erishish va global xafsizlik va kelajak avlodlar taqdiri bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish yo'lida juda ham ko'p ishlar qilmoqda.

Biroq, Birlashgan Millatlar Tashkiloti o'zining a'zo davlatlari va hozirgi dunyo xalqlari uchun foydali vosita bo'lib xizmat qilishi uchun, yigirma birinchi asr talablariga mos bo'lishi kerak. Shu munosabat bilan uzoq vaqtdan beri BMTda keng qamrovli islohotlar o'tkazish zarurligi haqida keng muhokamalar yuzaga kelmoqda. Tashkilotni isloh qilish uning jahon siyosatidagi markaziy muvofiqlashtiruvchi rolini kuchaytirish, zamonaviy dunyo sharoitlariga moslashish va barcha sohalardagi

faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir. Islohot keng ko‘lamli masalalarni o‘z ichiga oladi, ular ichida eng dolzarbi Xavfsizlik Kengashini isloh qilishdir.

BMTni isloh qilish zaruriyati

BMT islohoti nima?

Islohot ob‘ektning tabiiy, bosqichma-bosqich, tarkibiy va tubdan o‘zgarishidir. Shunga asoslanib, BMT islohoti tashkilotning hozirgi davrdagi taraqqiyotga moslashuvidir.

Dekolonizatsiya jarayoni natijasida xalqaro maydonda jahon iqtisodiyoti va siyosatiga ta‘siri kuchayib borayotgan yangi sub‘ektlar turkumi paydo bo‘ldi. So‘nggi bir necha yil ichida ular global o‘shishning dvigateliga aylandi. Xitoy, Janubiy Koreya, Tailand, Malayziya, Singapur, Hindiston, Braziliya, Chili, JAR, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlarning iqtisodiy yuksalishi jahon iqtisodiy taraqqiyoti markazining sharqiy yo‘nalishda harakatlanishiga olib keldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning BMT tuzilmalarida, ayniqsa Xavfsizlik Kengashida faolroq ishtirok etishi masalasi ko‘tarildi. Bugungi kunda bu davlatlar ko‘p tomonlama institutlarda mustahkam o‘rin egallab, global arxitekturani o‘zgartirmoqchi. Shunday qilib, BRIKS, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, G7, Xalqaro valyuta jamg‘armasi BMT islohotlarining amalga oshirilishini faol ravishda qo‘llab-quvvatlamogda, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarga qarorlar qabul qilish jarayonida ko‘proq vaznga ega bo‘lish imkonini beradi.

BMT islohoti tarafdorlarining noroziligiga nafaqat Xavfsizlik Kengashining tarkibi, balki uning ish uslublari, xususan, veto huquqi sabab bo‘lmoqda. Tanqidchilar buni davlatlarning suveren tengligi va demokratiya tamoyillarini buzuvchi anaxronizm deb atashadi. Xavfsizlik Kengashi islohoti tarafdorlari fikricha, u hozirgi ko‘rinishida Ikkinchi Jahon urushi artefakti bo‘lib, 1945 yildagi global kuchlar muvozanatini aks ettiradi va besh doimiy a‘zo o‘z maqomidagi imtiyozlarga ega. Bundan tashqari, BMT faoliyatining o‘nlab yillari davomida uning boshqaruv tizimida katta hajmdagi resurslarni o‘zlashtirish, shaffoflik va javobgarlikning yo‘qligi, turli komissiyalar, qo‘mitalar va idoralar funksiyalarining takrorlanishi kabi turli muammolar to‘planib qolgan.

XXI asrdagi globallashuv jarayonlari tufayli xalqaro xavfsizlik yangi tahdidlarga duch kelmoqda. Mamlakatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning chuqurlashishi, transmilliy terrorizm va diniy ekstremizm, yangi xalqaro nizolarning paydo bo‘lishi va mavjudlarning keskinlashuvi, nazoratsiz migratsiya oqimlari, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, kiberxavfsizlik muammolari, ommaviy qirg‘in

qurollarining tarqalish xavfi, xavfli yuqumli kasalliklar, tabiiy resurslarning kamayishi, iqlim o'zgarishi - yangi yechimlar va jahon hamjamiyatning birlashishini talab qilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti mavjudligining yettinchi o'n yilligi xalqaro keskinlik va dunyoda beqarorlikning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ushbu qisqa tarixiy davr Afg'oniston va Iroqda ko'plab to'qnashuvlar, Liviya va Suriyada, "Arab bahori" voqealari, Ukrainadagi urush, Rossiya va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning keskin kuchayishi kabi hodisalarning paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Xalqaro hamjamiyatning ushbu muammolarning oldini olish va hal etishga qodir emasligi Birlashgan Millatlar Tashkilotini isloh qilish, uning ish uslubi va yondashuvlarini takomillashtirish muhimligidan dalolat beradi.

Tashkilotning tuzilishi, vazifalari va roli bizning zamonamiz ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi, ortiqcha byurokratiya, sovuq urush davridagi saqlanib qolgan elementlar uning muvaffaqiyatli ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Islohot ba'zan munosabatlarda keskinlik olib keladi, bir qator davlatlar tomonidan tanqidga uchrashi va bir qator to'siqlar bo'lishi, bu jarayon uzoq davom etishi mumkin, lekin nima bo'lsa ham unga yechim topilishi zarur.

Sovuq urushning tugashi va AQShning jahon siyosatining nominal gegemoni sifatida paydo bo'lishi natijasida tashkilotni isloh qilish masalasi ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi. 1990-yillarda BMT dunyoning turli burchaklaridagi mojaralarni hal qilish uchun qattiq chora ko'ra olmagan masalan, Ruandadagi Tutsi halqining genotsidi va Afrikadagi boshqa mojarolarga (Kongo urushlari, Darfur, Eritreya mojarolari va boshqalar).

Ayniqsa, Bolqon inqirozining jiddiy va og'riqli sinovlari va Yaqin Sharq inqirozi, Iroq, Afg'oniston va Liviyaga harbiylarning kirib kelishi, Livan va G'azodagi Isroil operatsiyalarini qayd etib o'tish zarur.

BMT islohati: yutuq va kamchiliklar

Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahbariyati bir necha bor tashkilotni yangilash va qayta tashkil etish mumkin bo'lgan hujjatni ishlab chiqishga urinishgan. Shunday qilib, 2004-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi K. Annan tomonidan tashkil etilgan yuqori darajadagi hay'atning "Xavfsiz dunyo: bizning umumiy mas'uliyatimiz" hisoboti nashr etildi. Hujjat XXI asrda kollektiv xavfsizlikning tubdan yangi qarashlarini belgilab berdi. BMT yangi tahdidlarga muvaffaqiyatli dosh bera olishi uchun uni mustahkamlash bo'yicha shoshilinch choralar ko'rish zarur degan xulosaga kelindi.

2005-yilda K.Annanning “Erkinlikda: barcha uchun taraqqiyot, xavfsizlik va inson huquqlari sari” ma’ruzasida BMTga a’zo davlatlarga xalqaro munosabatlar tizimini isloh qilish bo’yicha harakat dasturini taklif qilgan edi. 2006-yilda Bosh kotibning “Birlashgan Millatlar Tashkilotiga sarmoya kiritish: Butun dunyoda kuchliroq tashkilot sari” hisoboti nashr etildi, unda inson resurslarini boshqarish, BMT boshqaruv tuzilmasi, axborot texnologiyalari tizimlari, byudjet va moliyaviy operatsiyalar sohalarida qator islohotlar tashabbuslari taklif etildi. Afsuski, ushbu hujjatlar tashkilotga a’zo davlatlarni uni isloh qilish masalasida birlashtira olmad.

Davlatlar BMTni isloh qilish bo’yicha o’z pozitsiyalariga ega. Xususan, Rossiyaning BMTni isloh qilishdagi yondashuvi quyidagi tamoyillarga asoslanadi[1].

- Birinchidan, bu butun tizimni mustahkamlash va samaradorligini oshirish fonidagi islohot bo’lishi kerak.

- Ikkinchidan, bu jarayon xalqaro huquq tamoyillari va BMT Nizomiga asoslanishi kerak. Agar ikkinchisi o’zgartirishlarni talab qilsa, bu ham Nizomning o’zida nazarda tutilgan tartiblarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

- Uchinchidan, BMT islohoti xalqaro hamjamiyatni parchalashi emas, balki birlashtirishi kerak, shuning uchun fundamental masalalar bo’yicha qarorlar a’zo davlatlar o’rtasida qabul qilinishi kerak.

Rossiya Federatsiyasining 2013 yilgi Tashqi siyosat konsepsiyasida XXI asrda xalqaro munosabatlarni tartibga solish va jahon siyosatini muvofiqlashtirish markazi sifatida BMT qolishi kerakligi ta’kidlangan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining islohoti xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun asosiy mas’uliyat yuklangan organ sifatida uning faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan bo’lishi kerak. Tashkilotni oqilona isloh qilish jarayonida Xavfsizlik Kengashi ko’proq vakillikka ega bo’lishi va o’z ishida zarur bo’lgan tezkorlikni ta’minlashi kerak. Xavfsizlik Kengashida qo’shimcha o’rinlar yaratish bo’yicha har qanday qarorlar keng muhokamalar asosida qabul qilinishi va uning doimiy a’zolari maqomi saqlanib qolishi kerak [2].

AQSh Prezidenti B.Obama Prezident kichik Jorj Bushning kursini davom ettirdi, unda Xavfsizlik Kengashini isloh qilish muammosiga emas, balki kundalik ish va moliyaviy boshqaruv sifatini, BMTning javobgarligi, shaffofligi va boshqaruvchanligini oshirishga, qaratilgan ma’muriy islohotlarga ustuvor ahamiyat berildi. B. Obama, shuningdek, BMTning shaffoflik va javobgarlik tashabbusi deb nomlangan dasturning ikkinchi bosqichini ishga tushirib, “Yanada samarali, faol, shaffof va ishonchli BMT tizimini targ’ib qilish bo’yicha davom etayotgan sa’y-

harakatlarni” (United Nations Transparency and Accountability Initiative, UNTAI) o‘zining asosiy ustuvor yo‘nalishi sifatida belgiladi [3]. Dastur kichik Jorj Bush davrida amalga oshirila boshlangan edi va sakkiz yo‘nalishni qamrab olgan [4].

Shu bilan birga, agar Rossiyaning yondashuvi BMTda ustuvor va ustuvor bo‘lmagan islohotlarga ajratmaslik prinsipiga asoslansa, Qo‘shma Shtatlar tashkilotni yanada boshqariladigan va mas‘uliyatli qilishga qaratilgan ma‘muriy islohotga ahamiyat beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining byudjet sohasida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish chora-tadbirlari, mansabdor shaxslarning daromadlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni e‘lon qilish dasturini kengaytirish kompleks islohotlar jarayonining natijalari bo‘ldi. Nazorat va audit tizimlari kuchaytirildi, ichki nazorat xizmatlari boshqarmasiga qo‘shimcha mablag‘lar ajratildi. Etika boshqarmasi tashkil etildi, tergov vositalari takomillashtirildi, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari tuzilmalari takomillashtirildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Gender tengligi va Ayollar huquqlarini kengaytirish bo‘yicha tashkiloti ichki tahlilni yaxshilash bo‘yicha choralar ko‘rdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Kotibiyatida davom etayotgan islohot kelajakda ko‘proq diplomatik sa‘y-harakatlarni talab qiladi. Rossiya Federatsiyasining BMTdagi doimiy vakili V.Churkin Kotibiyatni demokratlashtirishga chaqirib, tashkilotda AQSh, Fransiya va Buyuk Britaniya muhim o‘rinlarni egallab olganini ta‘kidladi. U “Uchta muhim lavozim - Bosh kotibning tinchlikni saqlash, siyosiy, gumanitar masalalar bo‘yicha o‘rinbosarlari haqiqatda uchta davlat tomonidan tortib olinganida, bunday vaziyatni normal deb hisoblash mumkin emas. Ishonchimiz komilki, Kotibiyat faoliyatining samaradorligi va qonuniyligini ta‘minlash uchun BMTga a‘zo barcha davlatlar o‘rtasida Kotibiyatdagi ushbu va boshqa ba‘zi yuqori lavozimlarni rotatsiya qilish zarur. Ularni tayinlanish jarayonini yanada shaffof qilish muhim” dedi [5].

Ta‘kidlash joizki, BMT a‘zolarining uchdan bir qismini tashkil etuvchi "77 guruhi"¹ va Xitoy uzoq vaqtdan beri Kotibiyatdagi lavozimlarni geografik va gender jihatdan teng taqsimlash masalasini ko‘tarib kelgan. Ular ushbu organda barcha

¹ "77 guruhi" (Group of Seventy Seven) (2013-йилда G133)- ривожланаётган мамлакатларнинг БМТ ва унинг органлари доирасида фаолият юритувчи энг йирик ҳукуматлараро ташкилоти. Гуруҳ тузиш тўғрисидаги қарор 1964-йилда Осиё, Африка ва Лотин Америкасидаги ривожланаётган мамлакатлар вазирларининг йиғилишида қабул қилинган ва худди шу йилнинг 15-июнь куни Женевада бўлиб ўтган БМТ Савдо ва тараққиёт конференциясининг 1-сессиясида расман расмийлаштирилган. Дастлаб янги ташкилотга аъзо давлатлар сони 77 тани ташкил этган бўлса, БМТ аъзолигига кўпроқ давлат аъзо бўлгач, уларнинг сони ортиб борди.

mamlakatlar fuqarolari vakilligini ta'minlaydigan islohotni talab qilmoqdalar. Misol uchun, 2008-yilgi "77 guruhi" va Xitoyning BMT boshqaruv islohoti bo'yicha pozitsiyasi hujjatida shunday deyilgan edi: "Muhim departamentlardagi yuqori boshqaruv lavozimlari faqat BMTga a'zo bo'lgan ba'zi davlatlarning ixtiyorida. Bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining bir qator rezolyusiyalariga zid keladi va shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladi" [6].

Qayd etish joizki, tashkilot mandatlarini ko'rib chiqish – eskirgan, bir-birini takrorlaydigan samarasiz dasturlarni qayta ko'rib chiqish lozim. Bu zaruratdan kelib chiqib, 2005-yilda Bosh Assambleyaning yubiley sessiyasida qaror qabul qilindi, ammo amalda uni amalga oshirish ortga surilib kelmoqda.

Uzoq vaqt davomida Rossiya BMT Nizomida nazarda tutilgan Xavfsizlik Kengashining yordamchi organi - Harbiy shtab qo'mitasi faoliyatini jonlantirishni talab qilmoqda. Rossiya delegatsiyasining BMTdagi uzoq sa'y-harakatlaridan so'ng, shtab o'zining amaliy faoliyatini faollashtirdi. Shunday qilib, Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolarining harbiy maslahatchilari Gaiti va Malidagi operatsiyalarga jalb qilindi [7].

BMT Bosh Assambleyasi faoliyatini jonlantirish masalasi muntazam muhokama qilinmoqda. 2005-yilda bo'lib o'tgan yubiley Butunjahon sammitidan so'ng uning faoliyatini jonlantirish uchun maxsus ishchi guruhi tashkil etildi. Unda Bosh Assambleya Raisining Bosh kotib va Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashlar raislari, yordamchi organlar raislari bilan muntazam uchrashuvlarini o'tkazish va ushbu uchrashuvlar natijalari bo'yicha a'zo davlatlar uchun brifinglar, xalqaro hamjamiyat uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masalalar bo'yicha interaktiv har tomonlama tematik munozaralar tashkil etib borish amaliyotini joriy etish kelishib olindi [8].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikparvar faoliyati doimiy evolyusiya holatida: tinchlikparvar operatsiyalarni tahlil qilish amalga oshirilmoqda, bugungi kunda va keyingi yillarda BMT tinchlikparvar kuchlari salohiyatini ro'yobga chiqarish va BMT missiyalari samaradorligini oshirish bo'yicha hal qilinishi kerak bo'lgan asosiy taktik va strategik muammolar tahlil qilinmoqda va to'liq ta'minlash imkoniyatlari o'rganilmoqda. Ushbu sohadagi tendensiya "ko'k dubulg'alar"ning profilaktika maqsadida kuch ishlatish huquqiga ega bo'lishini anglatadi. Bu tinchlikparvar kuchlar joylashtiriladigan davlatlardagi qiyin vaziyat tufayli missiya a'zolariga qarshi hujumlar sonining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan tinchlikparvar kuchlarning xavfsizligini ta'minlash masalasi ayniqsa keskinlashdi [9].

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining kamchiliklaridan biri mandatni berish bilan bog‘liq bo‘lgan va uni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan funksiyalar o‘rtasidagi tafovut juda keng ekanligidir. Xavfsizlik kengashi a‘zolari Xavfsizlik Kengishi mandatlarini amalga oshirish uchun siyosiy va moddiy ko‘mak berishda yetakchilik qilishlari kerak. Xavfsizlik Kengashi islohotini amalga oshirishda BMT a‘zolari Xavfsizlik Kengashiga a‘zo bo‘lish nafaqat qo‘shimcha imtiyozlarni balki, qo‘shimcha mas‘uliyatni ham nazarda tutishini yoddan chiqarmasligi kerak.

Muhim bir jihatni ta‘kidlash joiz: BMTning har qanday islohot loyixasi 2 ta muhim shart bajarilmasa, tug‘ri amalga oshirilgan bo‘lmaydi:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti a‘zolari va tashkilotni isloh qilish loyihasi tashkilotning asosiy xujjati- BMT Ustavining prinsiplariga mos kelishi kerak.

2. Loyiha zamonaviy halqaro munosabatlarning tabiatiga mos kelishi kerak.

Tinchlikni saqlashning yangi jihati ilg‘or texnik jihozlardan, xususan, qurolsiz, uchuvchisiz apparatlaridan foydalanish bo‘lib, ulardan foydalanish, nazorat qilish va olingan ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlashning huquqiy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Tinchlikni saqlash operatsiyalarining yana bir xususiyati ularning tinchlik o‘rnatish vazifalari bilan bog‘liq ko‘p komponentli xususiyatidir. Ularning vakolatlariga reintegratsiyani rag‘batlantirish, xavfsizlik sektorini isloh qilish va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini tiklash kabi ijtimoiy, gumanitar, huquqiy xarakterdagi komponentlar kiritila boshlandi. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, BMTning tinchlikparvar operatsiyalari samaradorligi hali ham yetarli darajada emas, ularni qo‘llab-quvvatlash uchun moliyaviy xarajatlar ortib bormoqda.

BMTning yangi tuzilmalari

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi K. Annan taklifi bilan 2005 yilda nizolar oqibatlarini bartaraf etish, ularning sabablarini bartaraf etish va tinch hayot tarzini targ‘ib etish, mamlakatlarga ko‘maklashish maqsadida Tinchlikni o‘rnatish komissiyasi tashkil etildi. Bir yil o‘tgach, konflikt yuzaga kelgan mamlakatlarga resurslarni tezlik bilan taqsimlash uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining Tinchlik qurish jamg‘armasi tashkil etildi.

Qo‘shma Shtatlar Tinchlik o‘rnatish komissiyasini tuzish bo‘yicha muzokaralarda bu g‘oyani qo‘llab quvvatladi va ushbu tuzilma BMT Xavfsizlik Kengashi nazorati ostida maslahat organi sifatida tashkil etildi. Rivojlanayotgan mamlakatlar Tinchlik o‘rnatish komissiyasini Bosh Assambleya nazorati ostidagi ishchi tuzilmaga aylantirish istagida edi. Shunday qilib, Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi vakolatlariga nisbatan g‘arb davlatlari va rivojlanayotgan

davlatlar o'rtasida "arqon tortish" jarayoni boshlandi. Tinchlik o'rnatish komissiyasi Xavfsizlik Kengashi tarkibida qoldi.

Bugungi kunda Tinchlik o'rnatish komissiyasi moliyaviy resurslarning yetishmasligi, faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilash, mehnat taqsimotida muvofiqlashtirishdagi qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Liberiya va Serra Leonedagi barqarorlik Komissiyaning samarali faoliyatiga misol bo'la oladi. Gvineya-Bisauda, Markaziy Afrika Respublikasida, Janubiy Sudanda istalgan natijalarga erisha olmadi.

2006 yilda Inson Huquqlari Kengashi tuzildi, unga tegishli mamlakatlarda inson huquqlariga rioya etilishini monitoring qilishning ob'ektiv mexanizmi sifatida Universal davriy sharhning yangi funksiyalari berildi. Oldindan mavjud bo'lgan Inson huquqlari bo'yicha komissiya AQShning tanqidlari ostida qoldi. Bu Isroilga qarshi rezolyusiyalar va uning a'zolik maqomi bilan bog'liq edi, kichik Jorj Bush ma'muriyatining fikriga ko'ra, bu organni butunlay obro'sizlantiradi. Inson huquqlari bo'yicha kengashni tashkil etish to'g'risidagi rezolyusiya loyihasining yakuniy matni Qo'shma Shtatlar kutganiga zid bo'lgani uchun ular ushbu tuzilmaga a'zo bo'lishdan bosh tortgan edilar. Prezident B. Obama ma'muriyati Inson huquqlari bo'yicha kengashga qaytib, o'z siyosatida "strategik ko'p tomonlama" va "prinsipial ishtirok etish" yondashuvlarini e'lon qildi [10].

Biroq, Vashingtonga ko'ra, Kuba va Eron kabi nodemokratik davlatlar Inson Huquqlari Kengashida mavjudligi noroziliklarni keltirib chiqardi. Da'volar, shuningdek, Isroilni tanqid qilishga bag'ishlangan ko'plab maxsus sessiyalarga tegishli. Qo'shma Shtatlar Eron va Suriyani Inson huquqlari bo'yicha kengashga kirmasligi uchun harakat qildi. Ular Inson Huquqlari Kengashidagi vaziyatni o'z foydasiga o'zgartirishga muvaffaq bo'lishdi: Isroilga e'tibor darajasini pasaytirish va Kengash ishining boshida bekor qilingan Erondagi inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni qayta ko'rib chiqishni tiklash; Suriyada maxsus tergov komissiyasini tashkil etish; Shimoliy Koreya va Belarus bo'yicha maxsus ma'ruzachilar lavozimini yaratish; Shimoliy Koreyadagi inson huquqlari masalasini Xavfsizlik Kengashida muhokama qilish imkoniyati;

Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari bo'yicha tuzilmasi o'z nomini o'zgartirib, avvalgidek muammolarga duch keldi, ya'ni davlatlar guruhlarini manfaatlarining qutblanishi va u yerda ko'rib chiqilayotgan masalalarning siyosiylashuvi. Masalan, Ukraina, Suriya, Myanma, Shimoliy Koreya bo'yicha muhokamalar qizg'in va umumiy yondashuvlar mavjud emas. 2008 yil, Kengash ishining boshlang'ich davrining o'zida uning faoliyatidagi muammolarni muhokama

qilgan ekspertlar Inson huquqlari kengashini “siyosiy futbol” deb atashgan [11, 348 b.]. Rossiya Inson Huquqlari Kengashiga “inson huquqlarini siyosiy lashtirishga va bu sohadagi xalqaro me’yorlarning umuminsoniy me’yorlar niqobi ostida tor talqin qilinishiga qarshi”ligi uchun a’zo bo’ldi. Uning yondashuvi har bir davlat va jamiyat o’z yo’lidan borish huquqiga ega ekanligiga asoslanadi. Rossiya Federatsiyasi inson huquqlari muammolaridan siyosiy bosim vositasi sifatida foydalanishga yo’l qo’yilmaslik prinsipiga tayanadi [12].

2005-yilda Prezident Jorj Bushning taklifi bilan BMT Demokratiya jamg’armasi tashkil etildi. Fond loyiha faoliyatini amalga oshirish uchun fuqarolik jamiyati, nodavlat notijorat tashkilotlari, hukumatlar va xalqaro tashkilotlarga grantlar ajratadi. Loyihalar inson huquqlari, demokratlashtirish vositalari, ayollar, yoshlar, ommaviy axborot vositalari erkinligi, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash kabi yo’nalishlarda amalga oshirilmoqda. Jamg’arma mablag’larini birinchilardan postsovet va Afrika davlatlari olishdi. Jami 120 ga yaqin davlat jamg’armadan mablag’ oldi. Demokratiya jamg’armasi hozirda Ukraina, Boliviya va Kongo Demokratik Respublikasida faoliyat yuritadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, "demokratiya va inson huquqlarini qo’llab-quvvatlash" faoliyati noaniq bo’lib, davlatlarning ichki ishlariga aralashish, muayyan siyosiy manfaatlariga xizmat qilish, davlat hokimiyati o’zgarishi bilan bog’liq bo’lgan muxolif guruhlar va harakatlarni qo’llab-quvvatlashni o’z ichiga oladi. 2015 yilda Rossiyada xorijiy agentlar sifatida faoliyat yurituvchi notijorat tashkilotlari ro’yxatiga boshqa xorijiy manbalar qatorida BMTning Demokratiya jamg’armasi tomonidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar ham kiritilgan.

2015-yil 16-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 70-yubiley sessiyasi boshlanishi munosabati bilan bo’lib o’tgan matbuot anjumanida uning Bosh kotibi Pan Gi Mun BMTning ayrim missiyalari xatolarining jiddiyligini, ular yuborilgan mamlakatlardagi vaziyat yanada murakkablashganini e’tirof etdi.

Umuman olganda, BMTda turli masalalar bo’yicha ishlar, jumladan, uni isloh qilish Shimol va Janub qutblanishi fonida olib borilmoqda. Shunday qilib, Qo’shma Shtatlar va Yevropa Ittifoqi boshqaruvni modernizatsiya qilish va moliyaviy resurslarni yanada samaraliroq sarflash muhimligi haqida gapirib, tashkilotning ma’muriy islohotini o’zlarining ustuvor yo’nalishlari deb biladi. Bular moliyaviy menejment, xodimlarni boshqarish, xaridlar tizimi, xulq-atvor normalari va axloq qoidalari, ichki audit va tergov vositalarini kuchaytirish kabi masalalardir. G’arb delegatsiyalarining faoliyati asosan BMTda yadroviy qurollarni tarqatmaslik, terrorizm, qurolsizlanish va inson huquqlari kabi muammolarni hal qilishga

qaratilgan. Qo‘shma Shtatlar BMTning rivojlanish tuzilmalarida moliyaviy va boshqaruv islohotlarini ilgari surish tarafdori. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotida ham islohotlar rejalashtirilgan [13].

“77 guruxi” va Xitoy Birlashgan Millatlar Tashkilotida boshqaruvni yaxshilash tarafdori, shu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlarning Kotibiyatda vakillik qilishi muhimligini ta’kidlab, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy arxitekturani isloh qilish, qashshoqlikni bartaraf etish va barqaror rivojlanish kabi iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga ustuvor ahamiyat beradi. Rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlanish sohasidagi moliyaviy resurslarning qisqartirishidan juda havotirda. “77 guruhi” delegatlaridan biri shunday deydi: “Bizning qashshoqlikdagi hayotimizni boshqalar tushuna olmaydi. Biz uchun bu haqiqat: odamlar oziq-ovqat va boshpanasiz yashaydilar. Ular uchun bu faqat nazariy munozaradir” [14].

“77 guruhi” shuningdek, AQSh tomonidan faol ilgari surilayotgan tashkilotning ma’muriy islohoti rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlariga tajovuz qilish va BMTning asosiy moliyaviy donorlari hisoblangan davlatlarning ta’sirini kuchaytirishga qaratilgan, deb hisoblaydi. Ularning tashvishi gumanitar masalalardan xavfsizlik masalalariga o‘tish ehtimoli bilan bog‘liq [15]. Shu bilan birga, “77 guruhi” va Xitoy BMT Taraqqiyot dasturi faoliyatiga alohida e’tibor qaratadi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasiga yo‘naltirilayotgan moliyaviy resurslar hajmini oshirish tarafdori, a’zo davlatlar, ularning moliyaviy imkoniyatlaridan qat’i nazar BMT tizimida teng huquqli ekanligini ta’kidlaydi.

BMT islohotini amalga oshirishdagi qiynchiliklar

Islohotga eng jiddiy to‘siq- siyosiy kelishuvning yuqligi. Islohotlar faqat kichik bir guruh siyosatchilari va tor mutaxassislarning qarashlarini aks ettirsa, samarali bo‘la olmaydi. Ular keng kelishuvga asoslangan va umumiy qadriyatlarni ifodalashi kerak. Bunday kelishuvga erishish dunyo hamjamiyatining asosiy va umumiy vazifasiga aylanishi kerak.

1993 yilda BMT Xavfsizlik kengashini isloh qilish masalalari bilan shug‘ullanish uchun ochiq ishchi guruhi tuzilgan edi. 2000-yilda Ming yillik sammitida deklaratsiya qabul qilindi, unda davlat va hukumat rahbarlari Xavfsizlik Kengashini keng qamrovli isloh qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarini faollashtirish qat’iyatini bildirdilar. 2005-yil sentabr oyida bo‘lib o‘tgan yubiley Jahon sammitida a’zo davlatlar o‘rtasidagi keskin kelishmovchiliklar tufayli bu borada bir qarorga kelinmadi.

Bugungi kunga kelib, bu sohada o‘zgarishning yo‘qligi BMT Xavfsizlik Kengashida vakillik qilish imkoniyati uchun kurashayotgan davlatlar guruhlarini

o‘rtasida bir-birini istisno qiluvchi yondashuvlarning mavjudligi bilan bog‘liq. “Bir guruh davlatlar mutlaqo yangi doimiy o‘rinlar yaratilishini talab qilmoqda, yana biri esa yangi doimiy o‘rinlarni yaratishga yo‘l qo‘yish mutlaqo mumkin emas va doimiy bo‘lmagan a‘zolar sonini ko‘paytirish orqali yechim izlash kerak, deb hisoblaydi. Ayni paytda ikkala guruh ham BMT Xavfsizlik kengashini kengaytirish tarafdori”, — dedi Rossiya tashqi ishlar vaziri S.Lavrov [16].

Hindiston, Braziliya, Germaniya va Yaponiya yoki bu o‘rinlarga da‘vogar “To‘rtlik guruhi” (G4) Xavfsizlik kengashini doimiy a‘zolar toifasiga kengaytirish tarafdori. Pokiston, Janubiy Koreya, Argentina, Turkiya, Ispaniya va boshqalarni o‘z ichiga olgan “Konsensus uchun birlashish” guruhi o‘zlarining “BMT Xavfsizlik Kengashi faoliyatini kengaytirish bo‘yicha yo‘riqnomasi”ni ilgari surdi. Ular Xavfsizlik Kengashining doimiy bo‘lmagan a‘zolari sonini kengaytirish orqali isloh qilishni taklif qilmoqdalar. Bu mamlakatlarning bir guruhi Xavfsizlik Kengashida yangi doimiy o‘rinlar tashkil etishni maqsadga muvofiq emas deb hisoblaydi.

Ushbu qarama-qarshi guruhlarining hech biri hozirgacha taklif qilingan taklif maksimal darajada qo‘llab-quvvatlanishini va Xavfsizlik Kengashi islohoti uchun asos bo‘lishini ta‘minlay olmadi. Boshi berk ko‘chadan chiqish va murosaga kelish uchun oraliq formulani ishlab chiqishga harakat qilindi, ammo BMTga a‘zo davlatlarning fikrlaridagi keng farqlar tufayli muvaffaqiyat qozonmadi.

Moskva davlat xalqaro munosabatlar institutining Yevroatlantika xavfsizligi markazi direktori A. Nikitin vaziyatni quyidagicha baholaydi: “A‘zolar sonini ko‘paytirish mumkin, lekin Rossiya ba‘zi nomzodlarni, G‘arb davlatlari boshqalarni qo‘llab-quvvatlaydi, ba‘zilari esa bir-biri bilan bog‘langan. Masalan, Hindistonni Pokistonsiz, Braziliyani Argentinasi qabul qilib bo‘lmaydi va hokazo. Bu yerda, boshqa ko‘plab sohalarda bo‘lgani kabi, buyuk davlatlarning manfaatlari faqat texnik masalalarga qaratilgan va bu BMT Xavfsizlik Kengashining islohotini o‘nlab yillar davom etadigan jarayonga aylantiradi” [17].

2015-yil 25-sentabr kuni Nyu-Yorkda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 70 yilligiga bag‘ishlangan BMT Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasi ochildi, unda ko‘plab xalqaro muammolardan tashqari, Xavfsizlik Kengashining islohoti ham muhokama qilindi. Braziliya, Germaniya, Hindiston va Yaponiya qo‘shma bayonot chiqarib, yil davomida Xavfsizlik Kengashini kengaytirish uchun islohot qilish zarurligini ta‘kidladilar. Shunday qilib, Braziliya Prezidenti D. Russeff shunday dedi: “Katta to‘rtlik mamlakatlari yirik iqtisodiyot va Yer aholisining muhim qismini tashkil qiladi. Albatta, biz nafaqat o‘zimiz a‘zo bo‘lishni, balki Xavfsizlik Kengashining doimiy va nodoimiy a‘zolari sonining kengayishini istaymiz” [19].

Rossiya Prezidenti V.Putin 70-sessiyada so‘zlagan nutqida shuni ta’kidladi: “Birlashgan Millatlar Tashkiloti qonuniylik, vakillik va universallik nuqtai nazaridan tengi bo‘lmagan tuzilmadir. Albatta, dunyo o‘zgarishlarida va BMT bu tabiiy o‘zgarishlarga mos bo‘lishi kerak. Rossiya keng konsensus asosida barcha hamkorlar bilan BMTni yanada rivojlantirishga tayyor, ammo biz BMTning nufuzi va qonuniyligiga putur yetkazishga urinishlarni o‘ta xavfli deb hisoblaymiz. Bu xalqaro munosabatlarning butun arxitekturasi qulashiga olib kelishi mumkin. Shunda bizda haqiqatan ham kuch qonuniyatidan boshqa hech qanday qoida bo‘lmaydi” [20].

Rossiya Hindiston va Braziliyaning Kengashga doimiy asosda a‘zo bo‘lish to‘g‘risidagi arizalarini, shuningdek, Afrika qit‘asining ushbu tuzilmada doimiy bo‘lishini qo‘llab-quvvatlaydi. “Ammo bularning barchasiga qaramay, BMT Xavfsizlik Kengashini boshqarib bo‘lmaydigan, haddan tashqari amorf va shishgan organga aylantirmaydigan islohotlarni ilgari surish kerak. Jahon taraqqiyotining barcha hududlari, barcha markazlarini to‘g‘ri ko‘rsatish bilan birga, uning faoliyatidagi samaradorlik yana bir asosiy tamoyildir. Mintaqada 20 kishidan iborat oz sonli a‘zolar - menimcha, bu siz diqqatni qaratishingiz kerak bo‘lgan chegaradir”, - S. Lavrov [21].

